

AHOLINI RO'YXATGA OLISH NIMA?

AQSh aholisining rasmiy soni AQSh Konstitutsiyasi aholini ro'yxatga olishni har 10 yilda bir marta o'tkazilishni buyuradi

Maqsadi AQShda yashaydigan har bir kishini va ularning yashaydigan joyni sanoqdan o'tkazish

NIMAGA AHOLINI RO'YXATGA OLISH MUHIM?

Jamiyat oladigan federal moliyalashtirish miqdoriga ta'sir qiladi (ya'ni maktablar, salomatlik, yo'llar, hokazolarni moliyalashtirish).

Hukumat vakilligini aniqlaydi (ya'ni Kongressda belgilangan joylarni ajratish)

Bu sizning fuqarolik burchingizning muhim qismi

MENING SHAXSIY MA'LUMOTLARIM XAVFSIZ BO'LADIMI?

Ha! AQSh aholini ro'yxatga olish byurosi sizning ma'lumotingizni boshqalarga berishni qonunan taqiqlangan

Har qanday davlat yoki xususiy tashkilotlar (shu jumladan boshqa federal agentliklar va huquqni muhofaza qilish organlari) aholini ro'yxatga olish orqali to'plagan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega emaslar.

2020 YILGI AHOLINI RO'YXATGA OLISH QANDAY FARQLARGA EGA?

Aholini ro'yxatga olishni onlayn, telefon va qog'oz shaklda amalga oshirish mumkin bo'ladi.

BU QANDAY ISHLAYDI?

1

Javob berish vaqti kelganida, ko'pchilik xonadonlar pochta orqali taklifnomani olishadi.

2

2020 yilgi aholini ro'yxatga olish kampaniyasiga onlayn javob berish uchun taklifnoma (Ba'zi xonadonlar shuningdek qog'ozli so'rovnoma oladilar.)

3

Agar siz Pitsburg shahrida va yoki Allegheny okrugida istiqomat qilsangiz, aholini ro'yxatga olish bo'yicha so'rovnomaingizni 2020 yil 1 aprelda yoki undan oldin to'ldiring.

4

Har bir javob bermagan xonadon eslatmalar va oxirida qog'ozli so'rovnoma oladi.

Qaysi boshlang'ich taklifni yoki uni qanday olishingiz muhim emas - aholini ro'yxatga oluvchilar barcha javob bermagan xonadonlar bilan shaxsan uchrashadilar.

SO'ROVNOMANI TO'LDIRISHDA YORDAM KERAKMI?

SAVOLLARINGIZNI
contact@becounted2020.org GA
YUBORING YOKI TARJIMA XIZMATLARI
UCHUN 311 RAQAMIGA QO'NG'IROQ QILING



Aholini ro'yxatga olish raqamlari siyosiy okruglarni belgilaydi, tadqiqotlarga turtki beradi, rejalashtirish haqida ma'lumot beradi va federal moliyalash butun mamlakat bo'ylab qanday taqsimlanganligini aniqlaydi.

Har yili 675 milliard dollar federal hukumat tomonidan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga asosan taqsimlanadi. Shundan 26 milliard dollar Pensilvaniya shtatiga keladi. Allegheny okrugini mana buncha mablag' ajratiladi:

TRANSPORT VA INFRATUZILMA

2018 yilda mablag' ajratishda aholini ro'yxatga olishda foydalanadigan federal dasturlardan Allegheny okrugidagi Port boshqarmasiga 28.019.359 dollar ajratilgan.



Har haftani ish kunlarida, Port boshqarmasi o'rtacha hisobda 220.000 ta reysni amalga oshiradi hamda yana 5,000 ta reys ACCESS'da amalga oshiriladi.



Head Start dasturlari 1.953 bolaga xizmat ko'rsatdi va 79% Allegheny okrugidagi bolalar yashaydigan hamjamiyatlarga yetib bordi.

MAKTABLAR

Allegheny okrugidagi xizmat ko'rsatish dasturlarini moliyalashtirish uchun 10 million dollardan ko'proq mablag' ajratildi.

HAMJAMIYATNI RIVOJLANTIRISH

Allegheny okrugida har 7 kishidan 1 (~170.00 kishi) oziq-ovqat yetishmovchiliga duch kelmoqda. SNAP, WIC va Maktab taomlari dasturi barcha kerakli xizmatlarni taqdim etish uchun aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga tayanadi.



2017/2018 o'quv yili davomida Allegheny okrugida 800 dan ortiq nuqtalarda 7.5 milliondan ortiq taomlar tarqatilgan.

Keyingi o'n yillik aholini ro'yxatga olish 2020 yil 1-aprelda bo'lib o'tadi

- Aholini ro'yxatga olish bu rasmiy hisoblash yoki aholi borasidagi so'rovdur.
- Bundan maqsad AQShda yashaydigan har bir kishini (fuqarolar, fuqaroligi bo'lmaganlar, hujjati borlar, hujjatsizlar, talabalar va boshqalar) va ularning to'g'ri manzilni sanoqdan o'tkazishdir.

2020 yilgi aholini ro'yxatga olishda ishtirok etish fuqarolik burchidir va sizning jamoangiz uchun foydalidir.

- Aholini ro'yxatga olish raqamlari siyosiy okruglarni aniqlaydi, izlanishlarni kuchaytiradi, rejalashtirish va qarorlar qabul qilish haqida xabar beradi va federal moliyalashtirish mamlakat bo'ylab qanday ajratilishini aniqlaydi.
- Federal moliyalashtirishning 675 milliard dollari aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida taqsimlanadi va maktablarimizga yordam beradigan, ochlikni bartaraf etadigan va eskirayotgan infratuzilmani qayta tiklaydigan ko'plab dasturlarni moliyalashtiradi.

2020 yilgi aholini ro'yxatga olishda hisoblanish uchun bir nechta usul mavjud

- Ko'p manzillarga onlayn tarzda qatnashish bo'yicha xat bilan ko'rsatmalar yuboriladi.
- Siz pochta yoki telefon orqali ham javob berishingiz mumkin
- 2020 yil bahor/yoz oylarida, aholini ro'yxatga olish byurosi xodimlari hali hisoblanmagan manzillarga shaxsan boradilar

Sizning shaxsan aniqlanadigan ma'lumotlaringiz qonun bilan himoyalangan va u aholini ro'yxatga olish byurosidan tashqari hech kimga berilmaydi

- Javoblardan faqat statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin
- Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz boshqa davlat tashkilotlari yoki sudlar tomonidan ko'rilishi yoki foydalanilishi mumkin emas
- Shaxsiy aniqlanadigan ma'lumotlarini boshqaga bergan har bir kishi uchun qonunchilikda qat'iy jazo choralari mavjud

Ma'lumotlar xavfsizligi aholini ro'yxatga olish byurosi uchun eng muhim ustuvor vazifadir va 2020 yilgi aholini ro'yxatga olishning himoya qilish uchun keng qamrovli himoya choralari mavjud

- Onlayn javoblar shifrlashning ko'p qatlamlari bilan himoyalangan va siz yuborganingizdan so'ng onlayn ko'rishdan olib qo'yiladi
- Aholini ro'yxatga olish byurosi federal razvedka hamjamiyati va xususiy sanoat bilan birgalikda uning ma'lumotlari bazasiga har qanday tashqi tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish uchun ish olib boradi.

Agar sizning uyingizda internetga kirish imkoniyatingiz bo'lmasa ham siz hisoblanasiz

- Onlayn so'rovnomanini smartfonda ham to'dirsa bo'ladi
- Internetga kirish imkoniyati cheklangan uy xo'jaliklariga qog'oz yoki telefon orqali javob berish imkoniyati beriladi

2020 yilgi aholini ro'yxatga olishda ishtirok etish uchun ingliz tilini bilish shart emas

- Onlayn aholini ro'yxatga olish so'rovnomasi ingliz tilidan tashqari 12 ta tilda mavjud
- Telefon javoblari ham shu 12 tilda qabul qilinadi
- Qog'oz shakllari ingliz va ispan tillarida chop etiladi
- Til yo'riqnomalari va lug'atlar 59 ta ingliz bo'lmagan tillarda mavjud bo'ladi, jumladan Brayl tili ham mavjud

Aholini ro'yxatga olish so'rovnomasi o'nta savolga ega va uni to'ldirishga o'n daqiqa vaqt ketadi

- O'n yillik aholini ro'yxatga olish so'rovnomalari odatda uylarda va guruh sharoitida yashaydigan odamlarni, shu qatorda har bir xonadonda qancha odam yashayotganini yoki vaqtinchalik turganini, har bir kishining jinsi, yoshi va irqiga oid savollarni so'raydi.

Allegeni okrugi va Pitsburg shahri To'liq hisoblash qo'mitasini tuzdilar

- 2018 yil, 2-oktyabrda Okrug ma'muri Rich Fitsjerald va Pitsburg shahar meri Uilliam Peduto 2020 yilgi aholini ro'yxatga olish kampaniyasi oldidan qo'shma Okrug-Shahar To'liq Hisoblash Qo'mitasini (Country-City Complete Count Committee) (THQ) tashkil etilishini e'lon qilishdi.
- Guruh mamlakatimizning aholini ro'yxatga olishda ishtirok etishini nazorat qilish, aholini ro'yxatga olish bo'yicha ishonchli elchilar vazifasini bajarish, qo'mitaning maqsadlarini amalga oshirish uchun mablag'lashtirish manbaalarini belgilash va ta'minlashda yordam berish, shuningdek, okrugning o'ziga xos xususiyatlarga yo'naltirilgan rejani ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklangan.
- Allegeni okrugi - Pitsburg shahri THQ 2020 yil aholini ro'yxatga olish kampaniyasi uchun Pensilvaniya Hamdo'stligida tuzilgan ilk koalitsiya edi.
- THQ tarkibiga 26 ta manfaatdor tashkilotlar, va turli sohalardagi (shahar, okrug, xayriya, ta'lim, biznes, tibbiyot, jamoat tashkilotlari va hokazo) ishonchli jamoatchilik rahbarlari kiradi.

CONNECT WITH US

Allegheny County & City of Pittsburgh
[BeCounted2020.org](https://www.becounted2020.org) • [@BeCountedSWPA](https://twitter.com/BeCountedSWPA)

US Census Bureau
[2020Census.gov](https://www.2020census.gov)

[#BeCountedSWPA](https://twitter.com/BeCountedSWPA)
[#BeCountedAllegheny](https://twitter.com/BeCountedAllegheny)
[#BeCountedPGH](https://twitter.com/BeCountedPGH)

O'n yillik aholini ro'yxatga olish nima?

O'n yillik aholini ro'yxatga olish AQSh aholisining rasmiy hisoblanishidir. AQSh Konstitutsiyasi aholini ro'yxatga olishni har 10 yilda bir marta o'tkazishni buyuradi. Aholini ro'yxatga olishda uyingizda 2020 yil 1-aprel kuni yashagan barchani hisoblashingiz kerak.

Nega o'n yillik aholini ro'yxatga olish muhim?

Har 10 yilda aholini ro'yxatga olishda to'plangan ma'lumotlar sizning Kongressdagi namoyondalaringiz sonini belgilaydi va hamjamiyatizningdagi mablag'lar yo'llar, maktablar, kasxonalar qurish kabi ishlarga qanday sarflanganini aniqlaydi.

SIZDAN QANDAY MA'LUMOT TALAB ETILADI?

O'n yillik aholini ro'yxatga olish so'rovnomalari odatda uylarda va guruh sharoitida yashaydigan odamlarni, shu qatorda har bir xonadonda qancha odam yashayotganini yoki vaqtinchalik turganini, har bir kishining jinsi, yoshi va irqiga oid savollarni so'raydi.

Questions asked on the census include:

- Xonadoningizda nechta odam yashashaydi
- Uyingizning egasi haqida ma'lumot
- Sizning telefon raqamingiz
- Oilangizdagi har bir shaxsning ismi, yoshi, irqi va jinsi

SIZDAN QANDAY MA'LUMOT TALAB ETILMAYDI?

- Ijtimoiy xavfsizlik raqamlarini
- Bank yoki kredit karta hisob raqamlari.
- Pul yoki xayriya pullari.
- Siyosiy partiya nomidan har qanday narsa.
- Fuqarolik holati.

Hisoblovchilar nima?

Hisoblovchilar bu onlayn shaklda, telefon orqali aholini ro'yxatga olishga munosabat bildirmagan uy xo'jaliklariga borib aholini ro'yxatga olib keladigan shaxslardir. Hisoblovchilar uyma-uy yurib javob bermaganlarni uylariga tashrif buyuradilar.

Yotoqxonalarda, qariyalar uylarida yoki muassasalarda yashovchi odamlar qanday qilib hisobga olinadi?

Aholini ro'yxatga olish byurosi guruh kvartiralarida yashovchi odamlar uchun alohida aholini ro'yxatga olish ishlarini olib boradi. Universitetdagi talabalar uchun ro'yxatga olish mart oyida boshlanadi.

Universitetning talabalarini qanday hisoblash kerak?

Universitet o'quvchilari o'zlari tug'ilgan shahar emas, boradigan universitet joylarida hisobga olinishi kerak.

Aholini ro'yxatga olish paytida homilador shaxslar o'z oilalaridagi bolalar sonini qanday hisoblashadi?

Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, siz 2020 yil 1 aprelda bo'lgan bolalar sonini hisoblaysiz. Agar bola 1 aprelga qadar tug'ilmagani bo'lsa, chaqaloq keyingi o'n yillik ro'yxatga olishgacha hisobga olinmaydi.

Ingliz tilini bilmaydigan odamlar uchun manbalar bormi?

Ha, aholini ro'yxatga olish ingliz tilidan tashqari 12 tilda mavjud bo'ladi. Telefon javoblari ham ushbu 12 tilda qabul qilinadi. Qog'oz shakllari ingliz va ispan tilida mavjud bo'ladi. Til yo'riqnomalari va lug'atlar 59 ta ingliz bo'lmagan tillarda hamda Brayl tilida mavjud bo'ladi.

2020 yilgi aholini ro'yxatga olish varag'ini to'ldirish uchun uy xo'jaliklari qachon pochta oladilar?

Uy xo'jaliklari pochta orqali xat olishadi va ularga onlayn tarzda, telefon orqali to'ldirish yoki qog'oz nusxasini talab etish varianti beriladi. Aholini ro'yxatga olishning umumiy xronologiyasini quyidagi veb-saytda topishingiz mumkin

Aholini ro'yxatga olishda qatnashmaydigan ishchilar insonlarga 2020 yilgi aholini ro'yxatga olish so'rovnomasini to'ldirishda yordam bera oladimi?

Ha. Aholini ro'yxatga olish byurosi mutaxassisi bizga qo'shnilarimiz, do'stlarimiz va yaqinlarimizga aholini ro'yxatga olishda yordam berishi qabul qilinganligi to'g'risida xabar berdi. Iltimos, sizga yaqin bo'lgan aholini ro'yxatga olish markazi uchun ushbu havolani ko'ring.

MENING SHAXSIY MA'LUMOTLARIM XAVFSIZ BO'LADIMI?

Aholini ro'yxatga olish byurosi sizning javoblaringizni immigratsiya organlari idoralariga, huquqni muhofaza qilish organlari idoralariga bermaydi yoki bu ma'lumotlardan davlat imtiyozlaridan foydalanish huquqini aniqlash uchun foydalanishga ruxsat bermaydi.

**Elektron Pochta byulletenimizga shu
internet-saytida yoziling: BeCounted2020.org**